
ZAFAR MUBORAK, OLTIARIQLIK G'ALLAKORLAR

Oltiariq tumanida joriy yil 5 ming 400 gektar maydonga g'alla ekildi. Mirishkor dehqonlar 13 ming 946 tonna hosilni davlatimiz xirmoniga topshirib, belgilangan davlat shartnoma rejasini bajardilar.



G'alla o'rim-yig'im ishlarini sifatli tashkil etish uchun soha vakillari 23 ta otryadga birlashib mirishkorlarga ko'makdosh bo'ldi. "G'alla - 2022" mavsumida yaxshi natijalarni qo'lga kiritgan "Fahriddin Mirzo", "Ziyodullo Nodirbek fayz", "Kamil Hamdam Zamini", "Hoshimboy Muhammadyusuf", "Qiziltepa omadli nasl" kabi bir qator fermer xo'jaliklari nomlarini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Oltiariq azaldan mirishkor g'allakor va usta bobodehqonlar yurti. Bugungi kunda ham bu ezgu an'ananing munosib vorislari bo'lgan fermerlar joriy yilgi yutuqlar sarhisobidan mamnun bo'lib, ertangi kun istiqboli umidida ulkan orzu-maqсадlar bilan yangi marralar sari intilmoqda.

Hali g'allazorlarda hosil mo'l. O'rim-yig'im ishlari esa jadallik bilan davom etmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-22 19:11:58